



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
V-QISM**

Google Scholar



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
V-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqov *Salimov Oqil Umrzoqov*, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulaton Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG TAMOIYLLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY TAHLILI.....	12
I. R. Berdikulova	
TEKSTIL SANOATIDA SUV ISTE'MOLI VA QAYTA ISHLASH ULUSHI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: 20 DAVLAT MISOLIDA KORRELYATSIIYA VA K-MEANS KLASTER TAHLILI.....	16
Zayniyev Diyorbek Zokir o'g'li	
Turobova Hulkar Rustamovna	
O'ZBEKISTONDA BIZNES BIRLASHUVLARINI HISOBGA OLISHNI MHXS (IFRS) 3 ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	24
Davletov Ikrom Raximberganovich	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH TARTIBI.....	33
Jo'rayev Dilshod Xudoyqulovich	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ	38
Абдуллаева М.Б.	
AGROSANOAT MAJMUASIDA INTEGRATSION TUZILMALARNING ISTIQBOLLI SHAKLLARINING NAZARIY ASOSLARI.....	44
Murodov Sherzodbek Murod o'g'li	
RESPUBLIKADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING BOZOR MEXANIZMI.....	51
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA KO'MAKLASHISH.....	55
Niyozov Zuxur Davronovich	
Yarlaqabov Faxriddin Baxodir o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТЧЕТА О ФИНАНСОВОМ ПОЛОЖЕНИИ КОМПАНИИ В СООТВЕТСТВИИ С ТРЕБОВАНИЯМИ МСФО	58
Худойкулова Дилора Дилмуродовна	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSIYALARI TARKIBI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING IQTISODIY TAHLILI.....	64
Karimova Saodatxon Ulug'bek qizi	
XALQARO MOLIVAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA MUVOFIQ JORIY AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	71
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
DAVLAT TOMONIDAN TURIZM SOHASINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	77
Karimova Dilafruz Sadridin qizi	
МЕТОДЫ АНАЛИЗА ЦИФРОВИЗАЦИИ В РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	82
Ахмедова(Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи	
AHOLI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY OMILLARI VA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI	89
Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
Nematjonova Risolatxon Dilshodbek qizi	
JANUBIY KOREYA TAJRIBASIDA CHIQINDILARNI BOSHQARISHDA EPR TIZIMI VA RAQAMLI YECHIMLARINING O'RNI	94
Otarbayev Zamir Zairovich	



SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI INVESTISIYALAR ASOSIDA OSHIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI	100
Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich	
ЦИФРОВЫЕ НАВЫКИ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ЖЕНСКИХ КАДРОВ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	107
Дониёрова Зухрабону Алишер кизи	
TURIZM SUG'URTASI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	113
Хо'jamov Akbar Bahriddinovich	
KELAJAKDAGI GLOBAL VA MINTAQAVIY IQLIM O'ZGARISHI HAMDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ZARURIYATI.....	118
Djumayev Askar Xaydarovich	
SAMARQAND VILOYATI UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA RESURSLARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGI.....	123
Erdonov Muhammadamin Erdon o'g'li	
Qahhorova Nargiza Qahramonovna	
Rafiqjonov Damir Raxim o'g'li	
Jamilov Firdavs Otabek o'g'li	
ПУТИ РАСШИРЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ	129
Норкулов Хабибулло	
Абдурасулова Шахзода	
Бахриддинов Дилшодбек	
NATIV BRENDING VOSITASI SIFATIDA UGC VA EGC: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON BOZORIGA MOSLASHUV	135
Yuldasheva Mahliyo Baxtiyor qizi	
SOLIQ TO'LOVCHILARGA XIZMAT KO'RSATISHDA RAQAMLASHTIRISH ORQALI SOLIQ MA'MURCHILIGINING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	138
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ И ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ ПРИ УПРАВЛЕНИИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССАМИ	147
Джуманов А.А.	
BANK SEKTORIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XARAJAT SAMARADORLIGI: XALQARO TAJRIBA ASOSIDA EKONOMETRIK BAHOLASH.....	157
Masharipova Durdona Ulug'bekovna	
РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ.....	164
Джуманов А.А.	
DAVLAT XARIDLARIDA SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN NARXLAR MODULINI JORIY ETISH: KORRUPSIYAGA QARSHI KOMPLAYENS, HISOBDORLIK VA RAQOBATNI KUCHAYTIRISH YO'NALISHLARI.....	174
Rahmanov Furqat Temirovich	
АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ АЛЬТМАНА ПРИ ОЦЕНКЕ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	179
Ибрагимов Гайратжон Артикович	
TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNINZ ZAMONAVIY MODELLARI VA KOMPLAYENSNAZORAT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH	186
Fayziyev Sherzod Djunaydilloyevich	
SUN'IY INTELLEKTNING MEHNAT UNUMDORLIGI VA MOBILIGIGA TA'SIRI.....	192
Shakarov Zafar Gafforovich	



URGUT ERKIN IQTISODIY ZONASIDA SANOAT TARMOQLARINI KLASTERLASH SAMARADORLIGINING TAHLILI	198
Boboqulov Sanjar Baxronkulovich	
Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li	
Uzoqov Rafiq O'lmas o'g'li	
INFRATUZILMA INVESTITSİYALARINING AHOLI FAROVONLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA HUDUDIY XUSUSIYATLARI	204
Jiyanov Laziz Najimovich	
«ЗЕЛЁНОЕ» ВОДОСНАБЖЕНИЕ В ЗАСУШЛИВЫХ РЕГИОНАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	210
Курбанова Дилфуза Махсудовна	
TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIKPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	217
Karimova Feruza Xamidullayevna	
PAXTACHILIKDA ZAMONAVIY AGROTEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA EKOLOGIK MUVOZANAT TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI.....	221
Ishniyazov Zoxid Normamatovich	
FUQAROLAR MUHOJIRLARI MA'LUMOTLARI ASOSIDA HUDUDLARNING IJTIMOIIYIQTISODIY RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	226
Inomov Daniyar Valijonovich	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA QIMMATLI QOG'OZLAR BILAN OPERATSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH: HOLAT TAHLILI VA TAVSIYALAR.....	232
Niyozov Zuhur Davronovich	
Xolmurotov Sardor	
Haydaraliyev Avaz	
YAQIN SHARQDA TURIZM EKSPORTI STRATEGIYALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI: BAA VA SAUDIYA ARABISTONI TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY TAHLIL	238
Tolibova Aziza To'lqin qizi	
BANKLARDA IJARA MUOMALALARINI TARTIBGA SOLUVCHI ME'YORIY - HUQUQIY ASOSLAR VA XALQARO STANDARTLAR.....	243
Sativaldiyeva Gulchexra Xudayberdiyevna	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA STRATEGIK RISK-MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	247
Masharipova Sevara	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	251
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
Muhammadjonova Iroda Bahodir qizi	
BALIQCILIK TARMOG'INI INTENSIV RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	256
Iskandar Yunusov	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI: AGROEKOLOGIK VA IJTIMOIIY-IQTISODIY YONDASHUVLAR INTEGRATSIYASI	262
Mirzanov Berdak Joldasbeviç	
RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH MEXANIZMLARIGA TA'SIRI	268
A'zamxo'jayeva Nihol	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI: METODOLOGIYA VA TAKOMILLASHTIRISH	273
Aysachev Abdulfotix Abdulfaizovich	



O'ZBEKISTONDA XIZMATLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	278
Ruziyeva Nigina Baxtiyorovna	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDA OLIB BORILGAN ISLOHOTLAR (MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI MISOLIDA)	284
G.A. Norbo'tayeva	
YASHIL MARKETING VA ESG INTEGRATSIYASI: STATISTIK TAHLIL VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	288
Charos G'ayratova	
РАЗВИТИЕ ЦИФРОВЫХ СИСТЕМ И ОБЗОР ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ.....	294
Джуманов, А.А.	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH — IQTISODIY TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI.....	303
Bayitova Rohatoy Bahrom qizi	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRUVCHILARNI SUG'URTA MEKANIZMLARI ORQALI MOLIYALASH MASALALARI	307
Xakimov Zafar Ibragimovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGI ORQALI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING BARQAROR FAOLIYAT YURITISHINI TA'MINLASH MUAMMOLARI.....	314
Ahrorqulov Jonibek Otabek o'g'li	
FOOD PRICE VOLATILITY AND ITS EFFECTS ON LOW-INCOME HOUSEHOLDS	320
Rakhmatova Mukhlisa Dilshod qizi	
SUN'IY INTELLEKTNING O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI.....	327
Hamidova Shahzoda Odiljanovna	
MHS VA XUSUSIY SEKTOR KREDITLARI: MAMLAKATLARARO EMPIRIK TAHLIL.....	331
Davronbek Matyakubovich Matkarimov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM XIZMATLARINI TASHKIL ETISHNING ZARURATI.....	336
Xasanova Yulduz Kayumovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA ALOQA KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	340
Saidqosimova Umida Ibragimovna	
PROSPECTS FOR DEVELOPING BROKERAGE AND UNDERWRITING ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN.....	345
Niyozov Zukhur	
Barnoyev Mirfayoz	
Yadgarov Avaz	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN HIGHER EDUCATION: A GLOBAL REVIEW OF AI-POWERED TEACHING AND LEARNING	349
Begzod Nishanov	
BULUTLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARINI BOSHQARISH MEKANIZMLARI.....	356
Raxim Matniyazov	
Umar Asrayev	



BULUTLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARINI BOSHQARISH MEKANIZMLARI

Raxim Matniyazov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Raqamli iqtisodiyot kafedrası dotsenti

Umar Asrayev

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Raqamli iqtisodiyot kafedrası dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bulutli texnologiyalar asosida elektron ta'lim resurslarini boshqarishning zamonaviy mexanizmlari, ularning ta'lim tizimidagi o'rni hamda samaradorligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda bulutli hisoblash texnologiyalarining elektron ta'lim platformalariga integratsiyalashuvi, o'quv resurslarini saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish jarayonlarini optimallashtirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ta'lim resurslarini markazlashgan holda boshqarish, ularga masofadan turib kirishni ta'minlash, axborot xavfsizligini kuchaytirish hamda ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlash masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari bulutli texnologiyalar asosida elektron ta'lim resurslarini boshqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi tashkiliy va texnologik mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: bulutli texnologiyalar, elektron ta'lim, ta'lim resurslari, bulutli hisoblash, LMS, masofaviy ta'lim, raqamli ta'lim muhiti, ta'lim boshqaruvi, axborot xavfsizligi, raqamli transformatsiya.

Аннотация. В статье проанализированы современные механизмы управления электронными образовательными ресурсами на основе облачных технологий, их роль в системе образования, а также возможности повышения их эффективности. В исследовании раскрывается значение интеграции облачных вычислительных технологий в электронные образовательные платформы, а также их роль в оптимизации процессов хранения, обработки и использования учебных ресурсов. Кроме того, рассмотрены вопросы централизованного управления образовательными ресурсами, обеспечения удалённого доступа к ним, усиления информационной безопасности и поддержания непрерывности образовательного процесса. Результаты исследования позволяют разработать научно-практические предложения по совершенствованию организационных и технологических механизмов, способствующих повышению эффективности управления электронными образовательными ресурсами на основе облачных технологий.

Ключевые слова: облачные технологии, электронное обучение, образовательные ресурсы, облачные вычисления, LMS, дистанционное обучение, цифровая образовательная среда, управление образованием, информационная безопасность, цифровая трансформация.

Abstract. This article analyzes modern mechanisms for managing electronic educational resources based on cloud technologies, their role in the education system, and opportunities for improving their effectiveness. The study highlights the integration of cloud computing technologies into e-learning platforms and their importance in optimizing the storage, processing, and use of educational resources. It also examines issues related to the centralized management of educational resources, provision of remote access, strengthening of information security, and ensuring the continuity of the educational process. The research findings make it possible to develop scientific and practical proposals for improving organizational and technological mechanisms that contribute to increasing the efficiency of managing electronic educational resources based on cloud technologies.

Keywords: cloud technologies, e-learning, educational resources, cloud computing, LMS, distance learning, digital educational environment, education management, information security, digital transformation.

KIRISH

Raqamli transformatsiya jarayonlarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish zaruratini kuchaytirmoqda. Xususan, elektron ta'lim resurslarini yaratish, saqlash, boshqarish va ulardan foydalanish jarayonlarini takomillashtirish zamonaviy ta'lim tizimining



ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda masofaviy va aralash ta'lim shakllarining keng qo'llanilishi natijasida ta'lim muassasalarida katta hajmdagi elektron o'quv materiallari, multimedia resurslari hamda raqamli ma'lumotlar bazalarini samarali boshqarish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur sharoitda bulutli texnologiyalar elektron ta'lim resurslarini boshqarishning samarali vositasi sifatida muhim o'rin tutmoqda. Bulutli hisoblash texnologiyalari ma'lumotlarni markazlashgan holda saqlash, ularga istalgan joy va vaqtda kirish imkoniyatini yaratish, texnik xarajatlarni optimallashtirish hamda ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlash kabi afzalliklarga ega. Shuningdek, bulutli platformalar o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, o'quv materiallarini tezkor yangilash va taqsimlash, shuningdek, ta'lim xizmatlari sifatini oshirish imkonini beradi.

Jahon amaliyotida Google Workspace for Education, Microsoft 365 Education, Moodle Cloud va boshqa bulutli platformalar asosida elektron ta'lim resurslarini boshqarish tizimlari keng joriy etilmoqda. Ushbu tizimlar ta'lim muassasalarining axborot infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash va ta'lim xizmatlari samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bulutli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga samarali integratsiyalash axborot xavfsizligini mustahkamlash, ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlash, texnologik moslashuvchanlikni oshirish hamda boshqaruv samaradorligini yanada takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Ushbu maqolaning maqsadi bulutli texnologiyalar asosida elektron ta'lim resurslarini boshqarish mexanizmlarini tahlil qilish, ularning afzalliklarini ilmiy jihatdan asoslash hamda ta'lim tizimida qo'llash samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bulutli texnologiyalar va elektron ta'lim resurslarini boshqarish masalalari xorijiy hamda mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy ishlarda bulutli hisoblash texnologiyalarining ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi, elektron resurslardan foydalanish samaradorligi hamda ta'lim xizmatlarini raqamlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Rossiyalik olim A.A. Andreev masofaviy ta'lim tizimlarini rivojlantirishda bulutli texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bulutli xizmatlar elektron ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi, o'quv jarayonining moslashuvchanligi va samaradorligini oshiradi. Muallif ta'lim platformalarining markazlashgan boshqaruvi hamda resurslardan birgalikda foydalanish mexanizmlarini masofaviy ta'limning asosiy afzalliklaridan biri sifatida ko'rsatadi [3].

M. Armbrust va hammualliflari bulutli hisoblash texnologiyalarining iqtisodiy hamda texnologik afzalliklarini tahlil qilib, ta'lim muassasalari uchun infratuzilma xarajatlarini optimallashtirish, xizmatlardan masofadan foydalanish va ma'lumotlarni xavfsiz saqlash imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Tadqiqotchilar bulutli texnologiyalarni istiqboldagi axborot tizimlarining muhim platformalaridan biri sifatida baholaydilar [4].

O'zbekistonlik olim R.X. Ayupov raqamli iqtisodiyot va zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim tizimidagi o'rnini tadqiq etib, bulutli texnologiyalar elektron ta'lim muhitini shakllantirishning muhim omili ekanligini qayd etadi. Uning tadqiqotlarida ta'lim resurslarini markazlashgan holda boshqarish va ulardan samarali foydalanish masalalari yoritilgan [5].

L.A. Ablazovning ilmiy ishlanmalarida esa bulutli xizmatlar jismoniy shaxslar va korxonalariga masofadan turib, uchinchi tomonlar tomonidan boshqariladigan dasturiy hamda apparat vositalaridan foydalanish imkonini berishi ta'kidlanadi. Muallifning fikricha, bulutli hisoblash texnologiyalari ma'lumotlarni qayta ishlash, saqlash va ularga kirishni ta'minlashda moslashuvchan yechim sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, ushbu texnologiyalar simmetrik va asimmetrik shifrlash algoritmlari asosida axborot xavfsizligini ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Bulutli xizmatlar ma'lumotlarni tezkor ko'chirish, qayta ishlash va ulardan samarali foydalanish zarur bo'lgan jarayonlarda keng qo'llaniladi [7].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda bulutli texnologiyalarning texnik va pedagogik afzalliklari keng yoritilgan. Shu bilan birga, elektron ta'lim resurslarini boshqarishning kompleks tashkiliy va texnologik mexanizmlarini yanada takomillashtirish masalasi istiqbolli ilmiy tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda bulutli texnologiyalar asosida elektron ta'lim resurslarini boshqarish mexanizmlarini o'rganish va ularning samaradorligini baholashga qaratilgan ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini raqamli ta'lim, bulutli hisoblash texnologiyalari va elektron ta'lim tizimlarini boshqarish sohasidagi ilmiy ishlarda qo'llanilgan nazariy hamda amaliy usullar tashkil etdi.



Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash hamda tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Elektron ta'lim resurslarini boshqarishning mavjud mexanizmlarini o'rganishda ilmiy adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va xalqaro tajribalar qiyosiy tahlil qilindi. Bulutli texnologiyalarning ta'lim tizimidagi afzalliklari va ularni takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida kontent-tahlil usuli qo'llanildi.

Tadqiqotning amaliy qismida Google Workspace for Education, Microsoft 365 Education hamda Moodle Cloud kabi bulutli platformalarning funksional imkoniyatlari tahlil qilindi. Ushbu platformalar elektron ta'lim resurslarini saqlash, boshqarish, almashish va ulardan foydalanish mezonlari bo'yicha baholandi. Baholash jarayonida foydalanish qulayligi, ma'lumotlar xavfsizligi, masshtablanuvchanlik, iqtisodiy samaradorlik va integratsiyalashuv darajasi kabi ko'rsatkichlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bulutli texnologiyalar asosida elektron ta'lim resurslarini boshqarishda eng ko'p qo'llaniladigan platformalar qatoriga Google Workspace for Education, Microsoft 365 Education va Moodle Cloud kiradi. Mazkur platformalarning funksional imkoniyatlari ma'lumotlarni saqlash, masofaviy foydalanish, integratsiyalashuv darajasi, axborot xavfsizligi, foydalanish qulayligi, moslashuvchanlik, xarajat samaradorligi hamda texnik qo'llab-quvvatlash mezonlari asosida taqqoslandi (1-jadval).

1-jadval


Bulutli ta'lim platformalarining qiyosiy tahlili

Baholash mezonlari	Google Workspace for Education	Microsoft 365 Education	Moodle Cloud
Ma'lumotlarni saqlash	Yuqori	Yuqori	O'rta
Masofaviy foydalanish imkoniyati	Yuqori	Yuqori	Yuqori
Integratsiyalashuv darajasi	Yuqori	Yuqori	O'rta
Axborot xavfsizligi	Yuqori	Yuqori	O'rta
Foydalanish qulayligi	Yuqori	O'rta	O'rta
Moslashuvchanlik	O'rta	Yuqori	Yuqori
Xarajat samaradorligi	Yuqori	O'rta	Yuqori
Texnik qo'llab-quvvatlash	Yuqori	Yuqori	O'rta

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, Google Workspace for Education va Microsoft 365 Education platformalari elektron ta'lim resurslarini boshqarishda yuqori samaradorlikka ega. Moodle Cloud esa ochiq kodli yechim sifatida moslashuvchanlik va iqtisodiy samaradorlik jihatidan muhim afzalliklarga ega bo'lib, axborot xavfsizligi hamda texnik qo'llab-quvvatlash yo'nalishlarida qo'shimcha takomillashtirish imkoniyatlarini namoyon etadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, bulutli texnologiyalar elektron ta'lim resurslarini markazlashgan holda boshqarish, o'quv materiallariga tezkor kirishni ta'minlash, ta'lim jarayonining uzluksizligini saqlash va infratuzilma xarajatlarini optimallashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ma'lumotlar xavfsizligini mustahkamlash, internet tarmog'idan barqaror foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda foydalanuvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari mazkur yo'nalishning muhim ilmiy-amaliy vazifalari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida elektron ta'lim resurslarini boshqarishda gibrid bulut modelidan foydalanish, ma'lumotlarni zaxiralash tizimini takomillashtirish hamda axborot xavfsizligi standartlarini joriy etish ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. Bulutli hisoblash arxitekturasi

Ta'lim tizimida bulutli texnologiyalarning joriy etilishi elektron ta'lim resurslarini yaratish, saqlash va ulardan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. An'anaviy ta'lim infratuzilmasida elektron resurslar mahalliy serverlarda saqlanadi hamda ulardan foydalanish ma'lum hudud va qurilmalar bilan cheklanishi mumkin. Bulutli texnologiyalar esa ushbu cheklovlarni bartaraf etib, foydalanuvchilarga o'quv materiallaridan istalgan joy va vaqtda foydalanish imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bulutli platformalardan foydalanish ta'lim muassasalarining axborot texnologiyalari infratuzilmasiga sarflanadigan xarajatlarini optimallashtiradi. Server uskunalarini xarid qilish, ularga texnik xizmat ko'rsatish va dasturiy ta'minotni yangilash bilan bog'liq xarajatlarning muayyan qismi bulutli xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar zimmasiga o'tadi. Bu esa ta'lim muassasalariga moliyaviy resurslarni boshqa ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirish imkonini yaratadi.

Bulutli texnologiyalarni joriy etish natijalari

Tadqiqot natijalariga ko'ra, bulutli platformalar asosida tashkil etilgan elektron ta'lim muhiti quyidagi afzalliklarni ta'minlaydi:

- o'quv materiallaridan 24/7 rejimida foydalanish imkoniyati;
- o'qituvchi va talabalar o'rtasida real vaqt rejimida hamkorlikni tashkil etish;
- o'quv materiallarini markazlashgan holda boshqarish;
- ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlash;
- texnik va moliyaviy xarajatlarni optimallashtirish;
- ma'lumotlar xavfsizligini kuchaytirish.

Shu bilan birga, tahlillar bulutli texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etish jarayonida ushbu yo'nalishni yanada takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Jumladan, internet tarmog'idan barqaror foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ma'lumotlar maxfiylikni ishonchli ta'minlash hamda foydalanuvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish mazkur sohaning muhim ilmiy-amaliy vazifalari sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, bulutli texnologiyalar asosida elektron ta'lim resurslarini boshqarish mexanizmlarining joriy etilishi ta'lim sifatini oshirish, resurslardan foydalanish samaradorligini yaxshilash hamda ta'lim tizimini raqamli transformatsiya qilishning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda (2-rasm).

Bulutli texnologiyalarni joriy etish natijalari

Elektron ta'lim resurslarini boshqarish ko'rsatkichlarining taqqoslanishi.



2-rasm. Bulutli texnologiyalarni joriy etish natijasida elektron ta'lim resurslarini boshqarish samaradorligining o'zgarishi (%)

2-rasm ma'lumotlari bulutli texnologiyalar asosida tashkil etilgan elektron ta'lim muhitida barcha ko'rsatkichlar bo'yicha samaradorlik oshganini ko'rsatadi. Eng yuqori o'sish mobil qurilmalar orqali foydalanish imkoniyatida — 50 foizdan 96 foizgacha hamda resurslarni tezkor yangilash ko'rsatkichida — 58 foizdan 93 foizgacha kuzatilgan. Bu esa bulutli platformalarning elektron ta'lim resurslarini boshqarishda an'anaviy tizimlarga nisbatan sezilarli afzalliklarga ega ekanini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bulutli texnologiyalar elektron ta'lim resurslarini boshqarishning samarali vositasi hisoblanadi. Ular ta'lim muassasalariga o'quv materiallarini markazlashgan holda saqlash, boshqarish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bulutli platformalar yordamida elektron ta'lim resurslariga masofadan kirish, ularni tezkor yangilash hamda bir vaqtning o'zida ko'plab foydalanuvchilar bilan ishlash imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqot davomida Google Workspace for Education, Microsoft 365 Education va Moodle Cloud platformalarining funksional imkoniyatlari tahlil qilindi. Tahlil natijalari ushbu platformalar elektron ta'lim resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish, texnik infratuzilma xarajatlarini optimallashtirish hamda ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlashga xizmat qilishini ko'rsatdi.

Shuningdek, bulutli texnologiyalarni joriy etish natijasida elektron ta'lim resurslaridan foydalanish qulayligi, hamkorlikda ishlash imkoniyatlari va ma'lumotlar almashinuvi darajasi sezilarli ravishda oshishi aniqlandi. Shu bilan birga, ma'lumotlar xavfsizligini kuchaytirish, maxfiylikni ta'minlash hamda internet tarmog'idan barqaror foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish mazkur texnologiyalarni joriy etishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan ustuvor jihatlardan hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Ta'lim muassasalarida elektron ta'lim resurslarini boshqarish uchun bulutli texnologiyalar asosidagi yagona raqamli platformalarni joriy etish maqsadga muvofiq.
2. Elektron ta'lim resurslarining xavfsizligini ta'minlash uchun ma'lumotlarni zaxiralash va shifrlash mexanizmlarini keng qo'llash zarur.
3. O'qituvchilar va talabalarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha muntazam malaka oshirish dasturlarini tashkil etish lozim.
4. Bulutli platformalarni milliy ta'lim axborot tizimlari bilan integratsiyalash orqali ta'lim resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish mumkin.

Umuman olganda, bulutli texnologiyalar asosida elektron ta'lim resurslarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish ta'lim sifatini oshirish, ta'lim xizmatlari samaradorligini kuchaytirish hamda raqamli ta'lim muhitini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". <http://lex.uz/uz/docs/-4312785>
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. Andreev, A.A. (2013). Distance Learning Technologies and E-Learning. Moscow: Knorus.
4. Armbrust, M., Fox, A., Griffith, R., Joseph, A.D., Katz, R.H., Konwinski, A., Lee, G., Patterson, D., Rabkin, A., Stoica, I., & Zaharia, M. (2010). A view of cloud computing. Communications of the ACM, 53(4), 50-58.
5. Ayupov, R.X. (2020). Raqamli iqtisodiyot va elektron tijorat asoslari. Toshkent: Iqtisod-Moliya.
6. Begalov, B.A. (2021). Raqamli iqtisodiyotda axborot texnologiyalari va boshqaruv. Toshkent: Fan va texnologiya.
7. Ablazov, L., Xurramov, R., & Xoliyarov, F. (2024). Bulutli hisoblash xizmatlarining bugungi holati: afzalliklari va rivojlantirish imkoniyatlari. Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari, 4(1), 65-71. <https://dgeconomy.tsue.uz/index.php/dgeco/article/view/138>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>